

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Termiz iqtisodiyot va servis

universiteti rektori

A. Sattarov



ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI  
FANI  
O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta‘lim  
**Ta‘lim sohasi:** 110 000 – Ta‘lim  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 70110401 - Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang‘ich ta‘lim)

|                            |  |   |                               |                            |
|----------------------------|--|---|-------------------------------|----------------------------|
| Fan/modul kodi<br>ITMM105  | O'quv yili<br>2024 - 2025  | Semestr 1                               | Kreditlar<br>5                |                            |
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek  |   | Haftadagi dars soatlari<br>4  |                            |
| 1.                         | <b>FANNING NOMI</b>  | <b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b> | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b> | <b>Jami yuklama (soat)</b> |
|                            | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi  | 60                                      | 90                            | 150                        |
| 2.                         | <p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va unda nazariya va amaliyot birligiga rioya malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish ,ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish; ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning yechimini topish yo'llarini izlash texnologiyasini; axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati; ilmiy ish ma'nosini tushunishning ahamiyati; ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o'rganishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu: Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanning maqsad va vazifalari. Ilmiy bilimlarning metodologik asoslari.</b></p> <p>Tadqiqot metodologiyasining mohiyati. Tadqiqot obekti va predmetini aniqlash. Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash. Tadqiqot yondoshuvlari. Tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligi. Ilmiy natijalar. Yangi ilmiy natijalarni olish imkoniyatlari. Ilmiy tadqiqot ishlarining bosqichlari.</p> <p><b>2-mavzu: Ilmiy tadqiqot yo'nalishini tanlash va ilmiy muammo. Tadqiqot olib borish jarayonini tashkil etish</b></p> <p>Tadqiqot turlarini ularning yo'nalishlari bo'yicha tasniflanishi. Tadqiqotning maqsadini aniqlash bosqichi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini baxolash me'zonlarini shakllantirish (tanlash) bosqichi. Yangi ilmiy natijalarni olish variantlari. Tadqiqotni amalga oshirish bosqichi. Ilmiy muammolarni tanlash va shakllantirish. Ilmiy muammolarni ishlab chiqish va xal qilish. Muammoni hal qilishning ustuvorligini aniqlash. Ilmiy muammolarni tasniflash</p> <p><b>3-mavzu: Magistrlik dissertatsiyasini ilmiy tadqiqot turi sifatida</b></p> <p>Magistrlik dissertatsiyasi va uning belgilari. Magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlashi. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar. Ilmiy tashkilotni amalga oshirishning umumiy sxemasi. Magistrantlarning dissertatsiyasini rasmiylashtirishda rioya qilishi kerak bo'lgan qoidalar. Tadqiqot metodologiyasining mohiyati. Tadqiqot obekti va predmetini aniqlash. Tadqiqot konsepsiyasi. Tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligi. Ilmiy natijalar. Yangi ilmiy natijalarni olish imkoniyatlari. Ilmiy-tadqiqot ishlarining bosqichlari. Ilmiy tadqiqotlarda anglashning ilmiy metodlari.</p> |   |                               |                            |

#### **4-mavzu: Ilmiy tadqiqot vositalari va metodlari. Ilmiy tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik**

Vositalar va usullar metodologiyaning yirik bo'limi sifatida; Ilmiy tadqiqot vositalari (anglash); Ilmiy tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik; Anglashning axborot vositalari; anglashning mantiqiy usuli; anglashning til vositalari;

Ilmiy tadqiqot usullari; empirik usullar. adabiyotlar, hujjatlar va faoliyat natijalarini o'rganish. Ilmiy kuzatuv. O'lchov, so'rov. Ekspert baholash usuli. Prognoz qilish.

#### **5-mavzu: Ilmiy tadqiqotda -sinergetika muammosi**

“Sinergetika” tushunchasi; sinergetikaning obekti, uning pedagogic tadqiqotlar bilan aloqadorligi; sinergetika o'z o'zidan tashkillanuvchi sistemalar haqidagi ta'limot;

Sinergetika va dunyoning ilmiy manzarasi; Sinergetik va dialektik tafakkur uslublarning o'zaro aloqadorligi; Pedagog mutaxassislarning turli tuman bilim sohalarida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy diterminandlarini kashf etish natijasi.

#### **6-mavzu: Ilmiy tadqiqotlarni prognozlashtirish . Ilmiy bashorat ilmiy tadqiqotdagi o'rni**

Ilmiy tadqiqotlarni prognozlashtirish . Bashorat, ilmiy bashorat ilmiy bilish shakli sifatida ,ilmiy bashoratning o'ziga xos jihatlari, ilmiy bashorat shakllari, ilmiy bashorat tarkibi, ilmiy tadqiqotda ilmiy bashorat metodlari

#### **7-mavzu: Ilmiy tadqiqotlarda axborot va axborot xavfsizligi . Axborotlarni qidirishning asosiy metodlari**

Axborotning xujjatli manbalari. Ma'lumot axborot faoliyatini tashkil etish. Ilmiy -texnik axborot organlari. Referativ jurnallar. Signalli axborotlar xabarnomalari. Ekspress axborot. Taxliliiy sharxlar. Referativ sharhlar. Bosma bibliografik kartalar, axborotning hujjatli manbalarini qidirish. universal o'nlik tasnif (UDK). Kutubxona bibliografik tasnifi (BBK).

Xorijiy davriy nashrlarning ma'lumotlar bazasi. Maxalliy gazeta va jurnallar. Iqtibos indeksleri. Resurslar bilan ishlash, o'qish texnikasi, yozuvlar yuritish metodikasi, reja tuzish.

#### **8-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda ijodning namoyon bo'lishi. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik.**

Pedagogik tadqiqotlarda bilish va ijod uyg'unligi. Bilish faoliyatida ijod va mehnat uyg'unligi. Individual ijodiy faoliyat. Yangi bilimlarning eski bilimlar bilan bog'liqligi. Ijod yangi qadriyatlarni yaratish omili. Kashfiyotlar va ixtirolar ijodiy faoliyat natijasi sifatida. Insoniyat tarixida eng buyuk kashfiyotlar va ixtirolar.

Ilmiy ijodning evristik xarakteri. Fan tarixida ijod muammosi. Asosiy evristik modellar. Ilohiy ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy-ijod faoliyatida olimning shaxsiy fazilatleri.

Pedagogik faoliyatda ratsionallik va irratsionallikning o'ziga xos jihatlari. Hozirgi hayotning ratsionallashuvi. Xabitus- bu amaliyotni boshqaruvchi alohida

stixiya. Xabitus va vaziyatning o'zaro nisbati. Ijtimoiy harakatning maqsadi.

### **9-mavzu. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati**

Tushunish va uning bilish (tushuntirish) bilan o'zaro nisbatan muammosi. Tushunish turlari, tiplari va darajalari. Tushunishning o'ziga xos alohida xususiyati. Semiotika. Simvol. Diolog.

Tushunish va tushuntirishning o'zaro nisbati. Tushunish va tushuntirishning ilmiy tadqiqotdagi tutgan o'rni.

### **10-mavzu: Ilmiy dalillarning pedagogik izlanishlardagi o'rni**

Dalilning falsafiy taxlili. Dalilning muhim tomoni. Pedagogik izlanishlarda dalillarning o'rni. Talwin qilish dalilning muhim unsuri. Dalilning moddiy texnik yoki metodik tomoni. Ilmiy bilimni rivojlantirishda fan dalillari umumlashtirishning ahamiyati. Ilmiy dalillar, empirik gipotezalar va empirik qonunlar. Ilmiy dalil ishonchli kuzatish, eksperiment maxsuli. Ilmiy bilishning vazifasi.

### **11-mavzu: Novatsiya va innovatsiyalar hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarining tarkibiy qismi sifatida.**

Novatsiya va innovatsiyalar hozirgi zamon pedagogik ilmiy tadqiqotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida. Ilmiy tadqiqotning boshqa ijod shakllari bilan aloqadorligi. Ilmiy tadqiqotning xossalari, texnikaviy tadqiqot. texnikaviy ijod voqelikni amaliy (texnologik) o'zgartirish bilan bog'liqdir. Texnikaviy ijod o'zining psixologik tavsifiga ko'ra ilmiy ijodga yaqin bo'lsada farqli tomonlariga ham ega. Texnikaviy ijod tafakkurning ko'rgazmali ta'sirchan komponentlari. Texnikaviy ijod jarayoni ixtirochilik, loyihalashtirishda nomoyon bo'ladi. Texnikaviy ijod jarayoni ixtirochilik, loyihalashtirishda nomoyon bo'lishi. Texnikaviy ijodning ratsional va utilitar xususiyati.

Hamkorlikdagi ijod. Pedagogik ijod -pedagogik jarayonda yangilikni izlash va topish. Pedagogik ijodning xususiy ko'rinishi improvatsiya. Ilmiy ijodiy faoliyatni yangilashga nisbatan yangicha yondoshuvlar.

### **12-mavzu: Eksperimental tadqiqotlar**

Eksperiment tadqiqotning turi. Eksperiment o'tkazishdan bosh maqsad. Tabiiy va sun'iy eksperimentlar. Laboratoriya eksperimentlari. Ishlab chiqarish eksperimentlari.

Eksperimentning maqsad va vazifasi. O'rganilayotgan jarayon yoki obektga ta'sir etuvchi omillarni tanlash.

Eksperimental ma'lumotarni ishlab chiqish va tahlil qilish usullari. Eksperiment natijalari namoyish etish.

### **13-mavzu: Ilmiy tadqiqot ishini yozish va ilmiy maqola tayyorlash**

Ilmiy tadqiqot ishini yozish va ilmiy maqola tayyorlash tartibi. Ilmiy maqola. Sarlavha. Ilmiy maqola tarkibi. Ilmiy maqola dolzarbligi. Ilmiy maqolaning asosiy maqsadi.

Ilmiy muammo va ilmiy muammoning maqolada yoritilishi. Ilmiy maqola tayyorlashda mantiqiylikning tutgan o'rni. Xulosa. Ilmiy maqolada foydalanilgan adabiyotlar sharxi. Ilmiy maqola natijalarining hayotga tadbiiq etilishi.

**14-mavzu: Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, uning natijalarini rasmiylashtirish va hayotga tadbiq etish. (magistrlik dissertatsiyasi misolida)**

Tadqiqot muammosining belgilanishi. Ilmiy tadqiqot olib borilishi. Ilmiy izlanish qanday tartibda olib borilishi. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Muammoni o'rganganlik darajasi. Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning obekti. Tadqiqotning predmeti. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy natijasi. Ishning sinovdan o'tishi. Ilmiy ish aprobatsiyasining shakl va ko'rinishlari. Ilmiy ishning ximoya etish tartibi.

Tadqiqot Ntjalarini e'lon qilish tartibi. Nashrlar turlari. Ilmiy nashr. Nashrlarning asosiy vazifalari. Ilmiy nashrlarning standart shakllari. Ilmiy nashrlar ro'yxati. Ma'ruzalar chiqishlar tezislarining asosiy afzalligi. Ma'ruza chiqish mavzusini tanlash.

### **15-mavzu: Ilmiy izlanishda olimning ijtimoiy mas'uliyati**

Fan olimlar tomonidan amalga oshiruvchi faoliyat turi sifatida. Ichki va tashqi determinatsiya; erkinlik va ijtimoiy nazorat; neytralizm va ijtimoiy mas'uliyat; xozirgi zamon olimining portreti.

Konformizm roli; olimning mehnati va consensus; konsensusga erishish darajalari; koinot va tabiatning azaliy muammolari.

Ilm odamlari. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta'minlash shakllari. Ratsionallik qobiliyatlarining xaddan tashqari ortiq rivojlanishi. Fan tarixchilari professionallshuv jarayoni. XX asrda fanda havaskorlar o'rni Intellektual elita va super intellectual elita nazariyasi. Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi va uning zaruriyati. Olim etiketi. Olimning ijtimoiy mas'uliyati -insoniyatning tur sifatida saqlab qolishning bosh omili.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

#### **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanning maqsad va vazifalari. Ilmiy bilimlarning metodologik asoslari.
2. Ilmiy tadqiqot yo'nalishini tanlash va ilmiy muammo. Tadqiqot olib borish jarayonini tashkil etish
3. Magistrlik dissertatsiyasini ilmiy tadqiqot turi sifatida
4. Ilmiy tadqiqot vositalari va metodlari. Ilmiy tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik
5. Ilmiy tadqiqotda -sinergetika muammosi
6. Ilmiy tadqiqotlarni prognozlashtirish . Ilmiy bashorat ilmiy tadqiqotdagi o'rni
7. Ilmiy tadqiqotlarda axborot va axborot xavfsizligi . Axborotlarni qidirishning asosiy metodlari
8. Pedagogik tadqiqotlarda ijodning namoyon bo'lishi. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va iratsionallik.
9. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati
10. Ilmiy dalillarning pedagogik izlanishlardagi o'rni
11. Novatsiya va innovatsiyalar xozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarining tarkibiy

qismi sifatida.

12. Eksperimental tadqiqotlar
13. Ilmiy tadqiqot ishini yozish va ilmiy maqola tayyorlash
14. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, uning natijalarini rasmiylashtirish va hayotga tadbiq etish. (magistrlik dissertatsiyasi misolida).
15. Ilmiy izlanishda olimning ijtimoiy mas'uliyati

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fan ijtimoiy madaniy xodisa
2. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanining tarixi
3. Ilmiy tadqiqotning zamonaviy metodlari
4. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda navatsiya va innovatsiyalarning o'rni
5. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irrotsionallikning o'rni
6. Fundamental tadqiqotlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
7. Innovatsiya yangi ilmiy texnik yutuqlardan foydalanish usuli sifatida
8. Pedagogikada ilmiy tadqiqotning asosiy tiplari: fundamental amaliy, innovatsion va konstruktorlik loyihalash
9. Ilmiy bilish darajalari empirik va nazariy bilish
10. Axborot va axborot texnologiyalarining ilmiy bilishdagi o'rni.
11. Fanning diffensiyasi va integratsiyasi
12. Ijod va ijodiy faoliyat uyg'unligi. Jodiy faoliyatning turlari
13. Fanda tushunish va tushuntirish muammosi
14. Ilmiy muammo. Ilmiy taxmin. Ilmiy nazariya. Ilmiy bashorat.
15. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablar

#### **3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

##### **Magistr:**

Ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot olib borishning zaruriy shartlari, ilmiy izlanishga xos asosiy tushunchalar, ilmiy tadqiqot olib borishning mantiqiy tuzilmasi, ilmiy bilishda umumiy va xususiy metodlar, mavzuni tanlash bosqichlari, tadqiqot rejasini tuzish, ilmiy -metodik adabiyotlardan foydalanish, fanning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy tadqiqotning amal qilish mehanizmlari haqida tasavvurga ega bo'lish, bilishi;

Tadqiqot jarayonini tavsivlash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini fikrlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotning metodologik tamoyillari, ilmiy loyihalarini tuzish, ilmiy izlanishlarning yo'nalishlari haqidagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lishi;

#### **4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

Ma'ruzalar;

Seminarlar(mantiqiy fikrlash , tezkor savol javoblar:

Guruhlarda ishlash ;

Tadqimotlarni qilish;

Individual loyihalar'

Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

|    |   |
|----|---|
| 5. | <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b><br/> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>  |
| 6. | <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Шермухаммедова Н. Илмий тадқиқот методологияси. Ўқув қўлланма. Т.Ахборот технологиялари, 2014, 450 б.</li> <li>2. Давронов.Д.З. Илмий тадқиқот методологияси. Ўқув қўлланма. Т:ТМИ, 2006 -267 б.</li> <li>3. Саифназаров И, Қосимов В, Никитченко Г. Фаннинг фалсафий масалалари. Дарслик. Т.,2006</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ш.М.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини тامينлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. Т.: “Ўзбекистон“, 2017-йил.</li> <li>2. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: “Ўзбекистон“, 2017-йил.</li> <li>3. Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан кураамиз. Т.: “Ўзбекистон“, 2017-йил. 484 б.</li> <li>4. Туленов Ж. Фалсафий маданият ва манавий комолот,-Т.;2000</li> <li>5. Туленов Ж. Методология научного творчества ,-Т.2001</li> <li>6. Туленов Ж.Философские проблема науки. Т2001</li> <li>7. Арипов М. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари Т.: Университет, 2001, 306 б</li> <li>8. Фалсафа қисқача изоҳли луғат,-Т.: Шарқ, Абдуллаева М таҳрири 2004-384 б</li> <li>9. Шермухаммедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси. Т.;Ахборот технологиялари 2008 436-б</li> <li>10. Шермухаммедова Н.А .Гносология билиш назарияси, Т;Ношир,2011</li> </ol> |
| 7. | <p>Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “<u>30</u>” avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.</p>  |
| 8. | <p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b><br/> <b>Abdusamatov A.S</b> – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).</p>   |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b><br/> <b>U.Mustafayev</b> – TerDU “Falsafa” kafedrasi kata o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi<br/> <b>S.Turapova</b> – TISU “Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).</p>   |